

**Maftuna TURDIYEVA,**

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat*

*O'zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti*

*Filologiya fanlari doktori, dotsent S.Zokirova taqrizi asosida*

## THE FIRST BUDS STORIES ABOUT LAYLI AND MAJNUN

Annotation

Although there is general agreement among studies about the origin of the stories about Layli and Majnun, the absence of a unanimous conclusion encourages research on this topic. The article discusses the sources of origin of stories about Layli and Majnun, in particular, ancient Arabic (uzri) poetry.

**Key words:** Majnun, Layli, poetry, love, short story, Abu Bakr Valibi, badavi, image, subject.

## LAYLI VA MAJNUN HAQIDAGI QISSALARING ILK KURTAKLARI

Annotatsiya

Tadqiqotlarda Layli va Majnun haqidagi qissalarining kelib chiqishi haqida umumiy fikrlar mavjud bo'lsa-da, yakdil xulosaning mavjud emasligi bu mavzudagi izlanishlarga undaydi. Maqlola Layli va Majnun haqidagi qissalarining kelib chiqish manbalarini, xususan, qadimgi arab (uzri) she'riyati haqida fikr yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** Majnun, Layli, she'riyat, muhabbat, qissa, Abu Bakr Volibiy, badaviy, obraz, sujet.

## ПЕРВЫЕ ЗАЧЁТКИ ИСТОРИИ О ЛЕЙЛИ И МЕДЖНУНЕ

Аннотация

Хотя в исследованиях существует общее согласие относительно происхождения истории о Лейли и Меджнуне, отсутствие единогласного вывода побуждает к исследованиям по этой теме. В статье рассматриваются источники происхождения рассказов о Лейли и Меджнуне, в частности древнеарабская (узри) поэзия.

**Ключевые слова:** Лейли, Меджнун, поэзия, любовь, рассказ, Абу Бакр Волиби, бадави, образ, сюжет.

Layli va Majnun haqidagi qissalarini o'rghanishda avvalo e'tibor qaratadigan manbalardan biri – bu arab diyorida shu nomdagi qissalar vujudga kelgan davrdagi arab she'riyatidir. O'sha davr arab she'riyati haqidagi bilimlar bu qissa genezisiga doir tasavvurlarni shakllantirishga yordam beradi. Negaki, mazkur qissa haqidagi dastlabki ma'lumotlarni o'rgangan sharqshunoslar bu qissalarining xalq orasida paydo bo'lishida oshiq Majnunning sevgilisiga bag'ishlab aytgan she'rlari sabab ekanligini ta'kidlashgan. Chunonchi, "Sharq adabiyotida mazkur dostoniga asos bo'lgan qissa tarixda bo'lganmi, doston qahramonlari Layli va Majnun tarixiy shaxsmi, uydirmami degan savol ko'p muhokama qilinadi. Majnunning borligi masalasi qanday munozarali bo'lsa, unga nisbat berilgan misralarning muallifligi masalasi ham shunchalik bahsli. Biroq bu she'rlar asosida Majnun haqidagi rivoyatlar shakllana boshlangani ko'rinish turibdi" [5, 65]. Va bu voqeiy she'rlar asosida o'zagi bir-u, turli talqindagi rivoyatlar vujudga kelgan. Buni XII asrda yashab ijod etgan Abu Bakr Volibiyning "Devoni Majnun" kitobi ham tasdiqlaydi. Abu Bakr Volibiy Majnun nomiga nisbat berilgan she'rlarni yig'ib devon tuzadi va devonga kiritgan she'rlarning ko'plariga sharhlar beradi hamda ularni Majnun haqidagi rivoyatlarning sujetiga kiritadi.

Deyarli barcha xalqlarning so'z san'ati dastlab og'zaki shaklda paydo bo'lgani kabi qadimgi arab she'riyati ham og'zaki shaklda mavjud bo'lgan. U Arabistonning ko'chmanchi va o'troq qabilalarida urug'chilik tuzumi sharotida kelib chiqqan va o'z xarakteriga ko'ra, asosan, VIII asr o'talarigacha qabilaviy va badaviy she'riyat sifatida saqlanib qolgan. Bizga ma'lum eng qadimgi arab shoirlarining ijodi V asr oxirlariga to'g'ri keladi. Taxminan shu paytdan e'tiboran va VII asr o'talarigacha Shimoliy Arabistonda obrazlar boyligi va shaklining niyoyatda mukammalligi bilan ajralib turuvchi she'riyat gullab-yashnadi [6, 10].

Ma'lumki, qadimgi arab she'riyati ikki davrga bo'linadi: Johiliya davri she'riyati hamda ilk islom davri she'riyati. Johiliya davri she'riyati namunalarini badaviy shoirlar ijodi tashkil qilsa, ilk islom davri she'riyati haqida uzriy shoirlar ijodi orqali tanishish mumkin. Bu davrdagi badaviy she'riyatining o'ziga xos tomonlari shunda ediki, ular asosan, peyzaj, jangovar ruhdagi she'rlar bo'lib, ularning ma'lum qismida shoirning sevgi lirikasi ham bayon etilgan. Badaviy shoirlar ma'lum bir voqeя yoki joy haqidagi she'rida to'satdan sevgilisi bilan bog'liq shirin xotiralari esiga tushib qoladi va u ham she'rlarda aks etadi. Go'yoki bu she'riyat ijtimoiy xotiraning alohida bir turidek.

Ishq she'riyatining bir ko'rinishi bo'lmish, shuningdek, nazm shaklining nomi bo'lgan g'azal janri arab she'riyatining har bir davrida uchraydi. Ayniqsa, ummaviylar davrida adabiyot arboblari bu jaunga ko'p e'tibor qaratganlar. Turk olimi Saber Muhammed fikricha, ularning g'azallarini ishq haqida so'z yuritilishiga ko'ra ikkiga bo'lish mumkin: "Uzriy", ya'ni pok, pokiza ishqqa asoslangan cho'l g'azali hamda ehtirosga urg'u berilgan hissiy yoki shahar g'azali. Birinchi turdag'i g'azal maktabi bodiyada, cho'l mintaqasida keng tarqalgan. Uning kashshofi Jamil Muamer al-Uzriydir. Ikkinchisi shaharlarda, ayniqsa, Hijoz mintaqasi shaharlarida keng tarqalgan she'riyat, uning kashshofi Umar ibn Ebi Robiyadir [3, 598]. Birinchi xil she'riyat, ya'ni badaviy she'riyat shahar (saroy she'riyati ham deyiladi) she'riyatidan nisbatan oldinroq paydo bo'lgan va shahar she'riyatiga sezilarli ravishda badiiy ta'siri bo'lgan. Zero, badaviy shoirlarda hayotiy kuchga ega bo'lgan ko'chmanchi arab turmushining tavsiyi saroy shoirlarining she'rlarida sun'iylik kasb etib, an'anaviy qolipga aylanadi [6, 32].

Qadimgi arab she'riyatida uzriy she'riyati yetakchi maqomga ega bo'lganligi aytildi. Uzriy she'riyati ishqni pokiza va sof tarzda yoritgan she'riyatdir. Aytishlaricha, bir kishi shu qabiladan bo'lgan bir kishidan "Kimlardansan?" deb so'raganida, u kishi "Men sevib qolganida o'ladiganlar qabilasidanman," deb javob beradi. Uzriy shoirlari bor e'tiborini, she'rlarini o'zlarini sevib qolgan bir ayolga bag'ishlashni afzal ko'rganlar. Ular barcha baxtni va baxtsizlikni o'sha ayolda va unga yaqin bo'lishda topardilar. Undan boshqa ayolni maqtashmasdi. Shunga o'xshash sevgi boshqa qabilalarda ham uchraydi, garchi unchalik ko'p bo'lmasa ham. Masalan, Majnun mansub bo'lgan Bani amiriyl qabilasi ham shular jumlasidandir [3, 600]. Uzriy shoirlari o'zlarini

sevgan ayol boshqa birovga turmushga chiqsa ham, unga bo‘lgan qiziqishlarini saqlab, unga bag‘ishlab she’r yozishda davom etgan, hatto aqldan ozgan, ba’zilari shu yo‘lda o‘lgan ham. Bu holat ma’lum darajada an’anaga aylangan. Saber Muhammedning yuqoridagi keltirilgan fikrlarini biz shu mavzuga aloqador Filshtinskiy tadqiqotida ham uchratamiz: “Arab qo‘sishqchilarining sevgi lirikasi boshqacha tabiatga ega: iffatl, nafis, fojeali. Uzriy shoirlarning lirikasi o‘rta asr arab she’riyatining eng yuksak cho‘qqilaridan hisoblanadi. Ular dunyoga keltirgan obrazlar adabiyot tarixiga mangu kirdi va ko‘plab she’riy moslashuvlar mavzusiga aylandi. Ular orasida birinchi navbatda ozarbayjon shoiri Nizomi va o‘zbek Navoiyning yorqin dostonlarini alohida ta’kidlash lozim”[7, 7]. Layli va Majnun haqidagi keng tarqalgan turli qissalarda Layli va Majnunning o‘z sevgisiga sodiqlik motivlari bu tadqiqotlarga jiddiy yondashishga undaydi.

Sujeti bir-biriga deyarli o‘xhash bo‘lgan oshiq-ma’shuqlar haqidagi qissalar ko‘p bo‘lib, shulardan biri va mashhuri Layli va Majnun qissasidir. Qadimgi arab she’riyatining asosini sujet emas, balki obraz va hissiyot tashkil etgan. Sujet tomoni sust rivojlangan, ba’zan bu badaviy she’riyatining yana bir kamchiligi sifatida qayd etilgan [8, 58]. Qadimgi arab she’riyatining aynan shu xususiyatlari, ya’ni oshiqlar ishq o‘ta kuchli hissiyot bilan ifodalandani uchun tillarda doston bo‘lib, Majnun ishqining yuksak darajadaligini namoyon eta olgan va shu bilan bir qatorda Majnun va Layli qissasining bu rivoyat yaratilgan vaqtida ham aniq, izchil sujetga ega bo‘lgan deyish mumkin. Shuning uchun ham ko‘plab tadqiqotlarda bu qissaning haqiqatdan bo‘lgan voqeа ekanligiga, Majnunning tarixiy shaxsligi borasida ikkilanishlar mavjud.

Uzriy muhabbat qissalaridagi haqiqiy qahramonlarning barchasi shoir bo‘lgan. Chunki she’riyat arablarning qalbiga eng yaqin, eng ta’sirli san’at ekanligi ma’lum. Shu boisdan ham oshiqlar haqidagi ma’lumotlar keyingi asrlarga ularning she’rlari bilan chambarchas bog‘liqlikda yetib kelgan. Majnun biografiyasini ham shunday tushunish mumkin.

Uzriy she’rlari asosidagi oshiq-ma’shuqlar haqidagi hikoyalarda suddi Layli kabi sevilgan ayollar ham sadoqatli va ahida vafodor ayol sifatida gavdalani. Bu epizod keyinchalik yaratilgan “Layli va Majnun” dostonlaridagi Layli obrazida shu tarzda ifodalanadi. Abdurahmon Jomiying “Layli va Majnun” dostonida Laylining Majnun ishqini sinovdan o’tkazgandan so‘ng, unga ahd-paymon qilganligi to‘g’risida maxsus bobda Laylining Majnunga deganlari:

*Agar so‘nib bitsa bevaqt hayotim,  
Bu yorug‘ olamdan o‘chsa ham otim.  
Barchadan kecharman bilsang men bu on,  
Sen bilan abadiy tuzarman paymon* [2, 35].

Biroq bu she’rlarda ma’shuqaning boshqa erkak bilan turmush qurishi zarurat sifatida ko‘riladi. Bu ayollar eriga ham oshiqqa ham sadoqat saqlab turishiga alohida urg‘u berilgan. Bu holat oshiq va mahbubning bir-biriga bo‘lgan muhabbat pokligining dalilidir. Ikki sevishgan o‘rtasida bo‘lgan er obrazi bu turdag‘i barcha hikoyalarda mavjud. Er odatda yuksak mardlik tuyg‘usiga ega sifatida tasvirlanadi, u xotiniga o‘z sevgisini shahvoniy zavqqa aylantirmasligiga ishonadi. Ayni shu epizod ham barcha xamsanavislarning “Layli va Majnun” dostonlarida deyarli shu holicha saqlab qoligan va shunday tasvirlangan. Ya’ni Laylini otasi Majnunga berishdan or qilib, uni ibn Salomga turmushga beradi, kelinning unda ko‘ngli yo‘qligini bilgan kuyov esa hech bo‘lmasa uni ko‘rib turishga ham rozi bo‘lib, begonaday yashayveradi.

Uzriy qissalari roviylari oshiqlar ishqining nikoh bilan tugamasligining turli sabablari borligini alohida ta’kidlashga uringanlar. Bu bilan ular niroyasi nikoh bilan yakun topadigan muhabbatni pok muhabbat emasligiga, pok muhabbat jismoniy intilishlardan yiroq bir hissiyot ekanligiga urg‘u bermoqchi bo‘lganlar, nazarimizda. Va shunga muvofiq, ularning ishqiy qissalari sujetida oshiqlarning ishqiga to‘siqlik detali mavjud. Ba’zida sabab yigit va qizning oilalari o‘rtasidagi iqtisodiy farq ham bo‘lishi mumkin. Bu sevgi turida qizning otasi yoki yigit otasining e’tirozi, qabila boshlig‘ining yigit qonini to‘kish qarori kabi boshqa omillar ham ikki oshiqning turmush quroqlasligining sabablari qatorida doimiy ravishda tilga olinadi. Pok muhabbat tushunchasi ularning tasavvurida mana shu doirada edi o‘sha davrda. Ilk islom g‘oyalari tarqalayotgan davrda vujudga kelgan pok muhabbatni, vafoni ulug‘laydigan bu she’riyat badaviy shoirlarining ehtirosga to‘la, sadoqatdan yiroq mazmundagi she’rlariga go‘yoki zid tarzda vujudga kelgan edi. Ilk islom davri arab jamiyatida har narsada poklikka intilish tuyg‘ulari jamiyatning ongli qatlami bo‘lgan shoirlarda shakllana boshlagan edi.

**Xulosa.** Xulosa qilib aytganda, xalq orasida Layli va Majnun qissasining paydo bo‘lishi Majnunning muhabbatini haqidagi she’rlari bilan bog‘liqidir. Bu qissaning aniq bir sujetga ega emasligi uning haqiqatda bo‘lgan voqeа ekanligiga soya solishining omillari avvalo, arablarda yozuv adabiyotining og‘zaki adabiyotdan nisbatan kechroq paydo bo‘lganligi hamda qadimgi arab she’riyatiga, xususan, Majnun she’rlariga xos bo‘lgan sujet ketma-ketligiga ahamiyatsizlik, obraz va hissiyotning yorqin ifodaviylidir deyish mumkin.

#### ADABIYOTLAR

1. Alisher Navoiy . Layli va Majnun. – T.: G‘. G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, 2006. – 317 b.
2. Abdurahmon Jomiy. Layli va Majnun. O.Bo‘riev tarjimasi. – T.: G‘. G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, 1989.
3. Hanife KONCU. Leyla ve Mecnun Bibliyografyasi.Turkiye Arashtirmalari Literatur Dergisi, Cilt 5, Sayt 10, 2007, 597-615 ./Saber Muhammed maqolasi.
4. Куделин А.Б. Арабская литература . – М.: 2003. 512 с.
5. Малиев Н. Сўз санъатининг гултожи. –Т.:“Фан”. 1991. – 152 б.
6. Ziyavuddinova M. Mumtoz arab adabiyoti. – T.: 2012.
7. Фильшинский И. Арабская поэзия средних веков . Художественная литература. Том 20. М.: 1975.–767 с.
8. Шидфар Б. Я. Образная система арабской классической литературы(6 – 7 вв.) – М. Главная редакция восточной литературы.1974.

